

MULOQOT KO‘NIKMALARINING TA’LIM SAMARADORLIGIDA VA O‘QUVCHILAR HAYOTIDAGI O‘RNI

Nukus davlat pedagogika institute tayanch doktoranti

Ibodullayeva Inobat

Annotatsiya: Ushbu maqolada muloqot ko‘nikmalarining bilim olish, o‘rganish va rivojlanish jarayonlarida ham muhim ahamiyatga ega ekanligi, bu ko‘nikmalar o‘quvchilar ta’lim jarayonida va kelajakda yaxshi o‘quvchi sifatida faoliyat yuritishda poydevor hisoblanishi, muloqot jarayonida ikki tomonning ishtiroki va vazifasi haqida fikrlar keltirilgan.

Аннотация: В этой статье рассматривается, что коммуникативные навыки имеют важное значение в процессе получения знаний, обучения и развития. Подчеркивается, что эти навыки являются фундаментом для учащихся в образовательном процессе и в будущем для успешной деятельности в качестве хорошего ученика, а также обсуждаются участие и роль обеих сторон в процессе коммуникации.

Annotation: This article discusses the importance of communication skills in the process of acquiring knowledge, learning, and development. It emphasizes that these skills serve as a foundation for students in the educational process and for their future success as effective learners, and it also considers the participation and roles of both parties in the communication process.

Kalit so‘zlar: muloqot ko‘nikmasi, kognitiv ko‘nikmalar, psixomotor (texnik) ko‘nikmalar va ijtimoiy (muloqot) ko‘nikmalar, xabarning aniqligi, alternativ simvollar.

Ключевые слова: коммуникативные навыки, когнитивные навыки, психомоторные (технические) навыки, социальные (коммуникативные) навыки, точность сообщения, альтернативные символы.

Keywords: communication skills, cognitive skills, psychomotor (technical) skills, social (communication) skills, message clarity, alternative symbols.

Muloqot ko‘nikmalari bilim olish, o‘rganish va rivojlanish jarayonlarida ham muhim ahamiyatga ega. Ular orqali o‘zaro fikr almashish, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va innovatsiyalarni amalga oshirish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, nizolarni samarali boshqarish uchun ham yaxshi muloqot ko‘nikmalari zarur. Bu ko‘nikmalar o‘quvchilar ta’lim jarayonida va kelajakda yaxshi o‘quvchi sifatida faoliyat yuritishda poydevor hisoblanadi. O‘quvchilar guruhda ishlash, tushunganlarini tushuntira olish, fikrlarini dallilar bilan suhbatdoshiga yetkaza olish va muloqot qilish kabi vazifalarni bajarishlari kerak. Muloqot ko‘nikmalari o‘quvchining hayotida va kelgusi faoliyatida asosiy o‘rinni egallaydi, chunki ular jamiyatda faol ijtimoiylashish uchun asosiy ko‘nikmalardir.

“Ijtimoiylashuv jarayonida uchta asosiy ko‘nikma turi ajratiladi: kognitiv ko‘nikmalar, psixomotor (texnik) ko‘nikmalar va ijtimoiy (muloqot) ko‘nikmalari.”[1;146-b] Kognitiv ko‘nikmalar fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi, psixomotor ko‘nikmalar

amaliy ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan texnik qobiliyatlarni taqdim etadi, ijtimoiy ko‘nikmalar esa insonlar o‘rtasidagi muloqotni ta‘minlaydi. Barcha o‘quvchilar faqat maxsus bilimlardan ko‘ra ko‘proq narsaga muhtoj, chunki muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun keng qamrovli ko‘nikmalar majmuasi zarurdir. Muloqot ko‘nikmalari bu jarayonda markaziy ahamiyatga ega bo‘lib, shaxslar o‘rtasidagi muloqotni samarali tashkil etishga yordam beradi. Shunday qilib, muloqot ko‘nikmalari nafaqat shaxsiy rivojlanish uchun, balki professional muvaffaqiyat uchun ham zarurdir.

Muloqot — bu insonlar o‘rtasida ma‘lumot, g‘oya, munosabat yoki hissiyotlarni uzatish jarayonidir. Oddiy so‘zlar bilan aytganda, muloqot — bu xabarni yetkazish demakdir. Biroq, muloqot jarayoni yanada murakkab bo‘lib, u ikki tomonlama bo‘ladi: birinchi tomon (A) xabarni yuboradi, ikkinchi tomon (B) esa uni qabul qiladi. Muloqotni chuqurroq tushunish uchun, Theodorson tomonidan 1969-yilda berilgan ta‘rifga murojaat qilish mumkin. “U muloqotni ma‘lumot, g‘oya, munosabat yoki hissiyotlarni bir shaxs yoki guruhdan boshqasiga uzatish jarayoni sifatida belgilaydi.”[2;147-b] Bu jarayon asosan simvollar orqali amalga oshiriladi. Bu simvollar so‘zlar, harakatlar, tasvirlar va boshqa ifoda vositalari bo‘lishi mumkin. Muloqotda simvollar muhim rol o‘ynaydi, chunki ular orqali biz o‘z fikrlarimizni va his-tuyg‘ularimizni boshqalarga yetkazamiz.

A.A.Leontiev va boshqalarning fikricha, muloqot har safar bir tizim yoki manbaning boshqa tizim yoki manbaga ta‘sir ko‘rsatishi bilan bog‘liqdir. Bu ta‘sir alternativ simvollarini uzatish orqali amalga oshiriladi. Muloqot jarayoni shuni anglatadiki, bir tomon (manba) xabarni tayyorlaydi va uni boshqa tomonga (qabul qiluvchi) yetkazadi. Bu jarayonda uzatilayotgan xabar nafaqat ma‘lumotni o‘z ichiga oladi, balki o‘zaro ta‘sir va hissiy muloqotlarni ham o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, muloqot jarayoni faqatgina ma‘lumot almashinuvi emas, balki insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Muloqot jarayonining samaradorligi ko‘plab omillarga bog‘liq: xabarning aniqligi, qabul qiluvchining tushunishi va konteksti, shuningdek, uzatish kanali. Ushbu omillar muloqot jarayonining muvaffaqiyatini belgilaydi va ko‘pincha murakkab ijtimoiy vaziyatlarda xabarni to‘g‘ri tushunmaslikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun muloqot ko‘nikmalari har bir inson uchun muhimdir, chunki ular nafaqat shaxsiy hayotda, balki professional faoliyatda ham muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Muloqot jarayoni ijtimoiy muloqotlar va hamkorlikni rivojlantirishda markaziy rol o‘ynaydi va insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning asosini tashkil etadi.

“Muloqot ta‘rifi haqida Gerber tomonidan berilgan ta‘rifga ko‘ra, muloqot – bu xabarlar orqali ijtimoiy o‘zaro ta‘sir jarayonidir. Bu ta‘rif muloqot jarayonining ijtimoiy xususiyatini ta‘kidlaydi, chunki muloqot faqatgina ma‘lumot almashinuvi emas, balki insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatish va rivojlantirish uchun muhim vositadir.”[3;256-258-b] Muloqot jarayoni keng qamrovli bo‘lib, u ma‘lumot va xabarlarni bir nuqtadan boshqasiga uzatish jarayonini o‘z ichiga oladi. Bu jarayonning maqsadi esa ma‘lum bir harakatni keltirib chiqarishdir, bu harakat esa jamoa yoki shaxsning belgilangan maqsadlariga erishishga yordam beradi. Muloqot, shuningdek, sinfga ta‘sir qilish niyatida amalga oshiriladi, bu esa uning strategik ahamiyatini oshiradi. Muloqot jarayoni statik yoki

5-Noyabr, 2025-yil

mustaqil emas, balki vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turadigan dinamik bir jarayondir. Bu jarayon davomida xabarlar va ma’lumotlar doimiy ravishda yangilanadi va kontekstga mos ravishda o‘zgaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xudayberganov A. N. Badiiy loyihalash kursini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish. Dis-5412/1999. Dissertatsiya. – 1999. – 146 b.
2. Гильманова С.А. Педагогические условия развития иноязычной коммуникативной компетенции студентов неязыковых факультетов. Диссертация на соискание академической степени магистра. – Челябинск, 2019. 147 с.
3. Мисиров С.А., Қорабоев М.Ҳ., Тожибоев Ғ.Ш. Маданиятлараро мулоқотга оид матнларни танлашга қўйиладиган методик талаблар. // Маданиятлараро мулоқот: назария ва амалиёт. ТДПУ. – Тошкент, 2008. Б. 256 –258.

Global
Science
Publication